

TIBET, UNING TARIXI VA DINIY TUZILISHI

*Abduxamidova Gulsoraxon,
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi,
Qiyosiy dinshunoslik mutaxassisligi
2-kurs magistranti*

Tibet - O'rta Osiyoda Tibet xalqi vatani bo'lgan hududning nomi. O'rtacha 4,900 metr balandlikda joylashganligi uchun "Dunyoning tomi" deb tanilgan. Shimolida Xitoyning Shinjon-Uyg'ur muxtor tumani va Sinxay, sharqida Sichuan, janubida esa Hindiston, Nepal va Butan joylashgan. Tibetning poytaxti Lhasa shahridir.

Tibet 27-37 shimoliy kengliklar va 79–99 sharqiy uzunliklar oralig'ida joylashgan bo'lib, hozirgi kunda Xitoy Xalq Respublikasining boshqaruvi ostidagi hududdir. "Tibet" so'zi G'arb tillarida Tebet, Thebet, Thebeth, Tybot, Thibocht shakllarida ishlataladi. Ushbu atamalar 13-asrgacha borib taqaladi. O'rta asr Yevropa sayyoohlarining asarlarida "Tebet" va "Tibot" shakllari uchraydi. Mo'g'ul tilida esa Töböt, Tibit, Tibbit, Tibbet, Tibat shaklida qayd etilgan. Fors tilida esa "Tubbat" deb yozilgan.

Tibetning diniy tuzilishi uning geografik tuzilishi kabi yopiq va murakkabdir. Tibetning qadimiy dinlari haqida ko'p manbalar mavjud emas, mavjud bo'lgan barcha ma'lumotlar afsonalarga asoslanadi. Shunga qaramay, Bon dini Tibetning mahalliy dini sifatida tanilgan. Bugungi kunda Bon dini dunyodagi eng qadimgi dinlardan biri hisoblanadi.

"Bon" so'zi Tibet tilida:

- a) Sirli, mistik so'zlarni takrorlash,
- b) "O'lmas ta'limot" (Doktrina) ma'nolarini anglatadi.

Bon dinining asoschisi Usta Shenrab deb qabul qilinadi. Afsonalarga ko'ra, Shenrab yarim inson yarim xudo sifatida osmondan yerga tushgan. U odamlarga yerdag'i kuchlar va yovuz ruhlar bilan qanday kurashishni o'rgatgan.

Bon dini haqida turli xil qarashlar mavjud. Masalan Kvairn fikricha Bon dini Buddizmning bir turi, Tucci nazarida Bon dinida shivaizm unsurlari mavjud, Haffmann va Buraevga ko'ra Bon shamanism, Gumelov va Kuznetsov Bonni mitraizm deb biladi. Stein esa Bonni manixeylik bilan bog'laydi. David va Neel esa Bonni daosizm deb ta'riflashadi. Bon dini haqida bunday turli talqinlarning bo'lishi uni yanada murakkablashtirgan. Shu sababli, Bon dini deganda Tibetning o'tmishdagi barcha dinlari nazarda tutiladi. Bugungi kunda Bon dinining izlarini Sikkim, Butan va Sharqiy Tibetda ko'rish mumkin.

Yuqorida ta'kidlanganidek, Hoffmann fikriga ko'ra Bon dini shamanizmga tenglashtiriladi. Bu animistik va tabiat kuchlariga fetishistik sig'inishga asoslangan shamanizm turidir. Bon dinining asosiy ilohlari "Osmon" va "Yer" hisoblanadi. Shuningdek, "Ruhlar olami" ham mavjud.

Bon dinining xususiyatlari:

1. Osmon xudosining yer yuzidagi davomchisi bo'lgan shohlarga sig'inish. (Buddizmda bu Lamalarning qayta tug'ilishiga ishonish shaklida ifodalanadi).
2. Bashoratchi – ruhoniylarning mavjudligini tan olish. (Buddizmda bu – kohinlar).
3. Havo, tuproq va yer osti xudolariga ishonish. (Buddizmda bu kichik xudolarga ishonishga mos keladi).
4. Qurbanlik qilish. (Buddizmdagi qurbanliklar shaklida amalga oshiriladi).

Tibetliklar shaytonlar, ruhlar va jodugarlarga ishonishga katta ahamiyat beradilar. Buddizm Tibet hududlariga kirib kelganidan so'ng ming yil davomida Bon e'tiqodlari bilan kurash olib borgan. Ammo bu kurash hali ham davom etmoqda. Ushbu jarayonda bu ikki din o'zaro xususiyatlarini birlashtirgan holda sintez hosil qilgan. Bon dinining asosida monastir tushunchasi yo'q biroq Tibetning deyarli barcha hududlarida Bon monastirlari mavjud. Ularning ibodatxonalaridagi shakl va suratlar buddist monastirlarnikiga o'xshash. Ibodatxonalardagi markaziy figura Buddist yetakchi Padma Sambhavaga tegishli. Bon izdoshlari, Tibet buddizmining muqaddas matnlari o'xshash muqaddas kitoblar to'plamini yaratganlar. Bu holat ularning institutsionallashgan buddizmdan ta'sirlanganini ko'rsatadi.

8-9-asrlarda Tibetda buddist sulolalar va Bon dinini qo'llab-quvvatlagan oilalar o'rtasida kurashlar bo'lgan. Ushbu kurashlar natijasida Bon dini rivojlangan buddizm bilan birga mavjud bo'lish uchun o'z muqaddas matnlarini rivojlantirib, tizimli bir din shaklini olgan.

8-asr oxirida qirol Hrisong Detsenning bosimlari tufayli buddizm ustun keladi degan umid yo'qolgandek tuyulgan bo'lsa-da, Bon dini hech qachon yo'qolmagan. Bon dini hanuzgacha o'z hayotini davom ettirmoqda.

Umuman olganda, Tibetning diniy manzarasi buddaviylik ta'limoti, an'anaviy Bon diniy qarashlari va kundalik hayat bilan chambarchas bog'langan bo'lib, u tinchlik, rahm-shafqat va donolik tamoyillariga asoslanadi.